

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**



“KELISHILDI”
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

“14.10.20” 2020 yil

**AKADEMIK LITSEYLARDA ONA TILI FANIDAN
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI**
(umumta‘lim fanlar)

TOSHKENT – 2020

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2020-yil 14-avgustdagi № 3-son majlis bayoni bilan ma‘qullangan hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**Ona tili fanidan namunaviy o‘quv dasturi ustida ishlagan
ijodiy guruh tarkibi:**

T/r	Ism-sharifi	Ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi
1	Raupova Laylo Rahimovna	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori
2	Adizov Bekjon Qo‘chchiyevich	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori
3	Eshpo‘latova Saodat Maxmatovna	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
4	Umirova Mamlakat Imomovna	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
5	Qosimova Dilnoza Toshkanovna	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

KIRISH

Ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, ravon bayon qila oladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgarlar fikrini anglay oladigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Ona tili fanini o'qitishning vazifasi o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgarlar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; ona tilining imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrni to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish; yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish hamda fanning mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

1-, 2- bosqichda ona tili ta'limi o'rta ta'lim bosqichida olingan bilimlarni chuqurlashtiradi va rivojlantiradi. Bu esa o'rta ta'lim bosqichi ona tili darslarida o'rganilgan o'quv materialining maxsus takrorlanishini inkor etmaydi.

Dasturda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan leksik-grammatik bilimlar majmui o'zaro bog'liq va uzviy tarzda talqin etilgan bo'lib, o'quvchilarning bilim va dunyoqarashi ko'lamiga, ijtimoiy hayot va davlat siyosatidan kelib chiqadigan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarga asoslangan.

Ona tili o'quv rejasida 1- va 2- bosqichlar jami 144 soat hajmida belgilangan bo'lib, 1-bosqich 72 soat, 2- bosqich 72 soatga mo'ljallangan. Ona tili fanini o'qitish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

– mavjud axborot manbalari (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalarni (audio-video yozuv) va boshq.)dan o'quv maqsadlari doirasida izlab topa olish, saralash, qayta ishlash va foydalana olish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o'z faoliyatida qo'llash; media-madaniyatga rioya qilish;

– shaxs sifatida ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma'naviy ehtiyojga aylantirish;

– o'z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o'zini nazorat qila bilish, og'zaki va yozma matnlar mazmuniga to'g'ri baho bera bilish;

– jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish;

– tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo'lish;

– mavzu doirasida berilgan badiiy asar namunalarida aks etgan ma'naviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalarini anglash, his etish va boshqalarga yetkazishga intilish;

– inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda ulardan foydalana olish layoqatlarini shakllantirish.

Ona tili fani bo'yicha malaka talablari:

– fikrni mantiqiy izchilikda ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ravon va to'g'ri bayon etadi, 25-30 gapdan iborat ijodiy matn yoza oladi, imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi, ish qog'ozlari (hisobot, tarjimai hol va boshqalar)ni to'liq yozadi;

– til uslubini yaratuvchi vositalarni: leksik vositalar, fonetik vositalar, grammatik vositalar, sintaktik vositalarni izohlay oladi, farqlaydi va nutq ifodasida o'rinli foydalanadi;

– ilmiy manbalardagi o'rtacha murakkablikdagi ma'lumotlarni tinglab tushunadi, nutq uslubiyotiga xos xususiyatlarni tinglab tushunadi;

– nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta'sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va stilistik me'yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg'uni o'rinli va to'g'ri qo'yadi;

– turli janrdagi matnlarni ifodali hamda ta'sirchan o'qiy oladi, ulardagi uslubiy vositalarning ahamiyatini his qiladi;

– fikr ifodasida qo'shma gapning oddiy va murakkab turlaridan foydalanadi, bir fikrni turli shaklda ifodalaydi;

– ijodiy va badiiy matnlar yarata oladi, imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi, ixtisoslikka oid matn tuza oladi, bunda til birliklaridan o'rinli foydalanadi;

– 35-40 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi;

– fonetik o'zgarishlarni orfoepik qoidalar nuqtayi nazaridan tushuntira oladi, ohang va urg'uning nutqdagi ahamiyatini, yozuv tamoyillarini izohlay oladi;

– o'zbek tili leksikasining rivojlanishi, boyish manbalarini tushuntira oladi;

– so'z turkumlari, gap bo'laklarining uslubiy xususiyatlarini tushunib, izohlay oladi, nutqda grammatik hamda sintaktik birliklardan o'rinli foydalana oladi.

I BOSQICH ONA TILI

O'quvchilarning o'quv faoliyatiga qo'yiladigan talablar:

– fikrni mantiqiy izchilikda ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ravon va to'g'ri bayon etadi;

– 25-30 gapdan iborat ijodiy matn yoza oladi, imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi;

– ish qog'ozlarini (hisobot, tarjimai hol va boshqalar) to'liq yozadi;

– til uslubini yaratuvchi vositalar: leksik vositalar, fonetik vositalar, grammatik vositalar, sintaktik vositalarni izohlay oladi, farqlaydi va nutq ifodasida o'rinli foydalanadi.

II BOSQICH ONA TILI

O'quvchilarning o'quv faoliyatiga qo'yiladigan talablar:

– 30-35 gapdan iborat mantiqan izchil, ijodiy matn (bayon) yozadi;

– fikr ifodasida imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi;

– tinish belgilaridan o'rinli foydalanadi;

– kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalari, fikr ifodasida qo‘shma gapning oddiy va murakkab turlaridan foydalanadi;

– nutqiy muloqot va nutq madaniyati, madaniy nutq va uni shakllantiradigan asosiy sifatlar, nutqning to‘g‘riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyliigi, nutqning sofligi, nutqning boyliigi, nutqning jo‘yaliligi, nutqning ifodaliligini farqlaydi va yozma nutq ifodasida o‘rinli foydalanadi.

I KURS ONA TILI (72 soat)

Kirish. Milliy til va adabiy til. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari (2 soat)

O‘zbek tili va uning taraqqiyoti. Adabiy tilning og‘zaki va yozma ko‘rinishlari.

Uslubiyat. Til va uslub. Nutqiy uslublar va til vositalari. Nutqiy uslublarning asosiy turlari (6 soat)

Til vositalarini uslublarga ko‘ra farqlagan holda qo‘llash zaruriyati. Nutq uslublari. So‘zlashuv uslub. Rasmiy uslub. Ilmiy uslub. Publitsistik uslub. Badiiy uslub.

Ish qog‘ozlari va ular bilan ishlash (4 soat)

Hujjat turlari. Rasmiy va shaxsiy xatlar, ularning turlari va farqlari. Tavsifnoma, bayonnoma, hisobot, dalolatnoma, ariza, ma‘lumotnoma, ishonchnoma, tushuntirish xati, taklifnoma.

Fonetika (2 soat)

O‘zbek tilining tovush tizimi. Nutq tovushlarining ifodalanishi. Tovush o‘zgarishlari.

Orfoepiya (2 soat)

Talaffuz me‘yorlari. Ohang va uning nutqdagi ahamiyati.

O‘zbek tilining imlo qoidalari (8 soat)

“Lotin yozuviga asoslangan yangi imlo qoidalari”ning qabul qilinishi va uning ahamiyati. Harflar imlosi. Asos va qo‘shimchalar imlosi. Chiziqcha bilan yozish. Ajratib yozish va qo‘shib yozish. Bosh harflar imlosi. Ko‘chirish qoidalari.

So‘z yasalishi (2 soat)

So‘z yasalishi haqida umumiy ma‘lumot. So‘z yasalish tuzilishi (tarkibi). So‘z yasalish usullari. So‘z yasash jarayonida ro‘y beradigan o‘zgarishlar.

Leksikologiya (10 soat)

Leksikologiya. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. Ko'chma ma'nolar va ularning turlari. Metafora va uning uslubiyati. Metonimiya va uning uslubiyati. Sinekdoxa, vazifadoshlik va ularning uslubiyati. Atama va atamashunoslik. O'zbek tili leksikasining rivojlanishi va boyish manbalari. Omonimlar, sinonimlar, antonimlar va paronimlar, ularning uslubiy xususiyatlari. Eskirgan so'zlar va yangi paydo bo'lgan so'zlar. Iboralar.

O'zbek leksikografiyasi (2 soat)

Lug'at turlari: ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar va ularning o'ziga xosligi. Filologik lug'atlar, ularning turlari. Izohli lug'at, tarjima lug'at, ulardan foydalanish. Imlo va etimologik lug'at hamda ulardan foydalanish.

Morfologiya va uning birliklari uslubiyati (24 soat)

So'z turkumlari. Ot va uning uslubiy xususiyatlari. Matnlarda otlardan foydalanish uslubiyati. Sifat va uning uslubiyati. Sifatlarning ma'nodoshlari va antonimlari. Sifat darajalarining uslubiy xususiyatlari. Sifat yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari. Son va uning uslubiy xususiyatlari. Son va o'lchov so'zlari. Olmoshlarning ma'no xususiyatlari, ularning boshqa so'z turkumlari bilan almashinib kelishini izohlash. Kelishik qo'shimchalari va ularning uslubiy xususiyatlari. Egalik shakllarining uslubiy xususiyatlari. Sub'yektiv baho ifodalovchi qo'shimchalar uslubiyati. Fe'llarning mazmuniy turlari hamda uslubiy xoslanishi haqida ma'lumot. Nisbat shakllari uslubiyati. Mayl qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari. Shaxs-son qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari. Zamon qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari. Fe'llarning yasalishi, qo'shimchalar yordamida fe'l yasash. So'z qo'shish bilan fe'l yasalishi va uning sinonimiyasi. Yetakchi va ko'makchi fe'llar haqida. Ko'makchi fe'llar va ularning vazifalari. Inkor ifodalovchi morfologik vositalar uslubiyati. Bo'lishli va bo'lishsizlik shakllarining uslubiy xususiyatlari. Ravishlarning ma'no turlari: tub va yasama ravishlar, ularning uslubiy xususiyatlari. Yordamchi so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari. Ko'makchilar va ularning uslubiy xususiyatlari. Bog'lovchilar va ularning uslubiy xususiyatlari. Bog'lovchilarning ma'no guruhlari. Yuklamalar tasnifi. Yuklamalarning uslubiy xususiyatlari. Yuklamalarning bog'lovchilar bilan o'xshash va farqli tomonlarini tushuntirish. Undov va taqlidiy so'zlar, ularning uslubiy xususiyatlari. Modal so'zlar va ularning uslubiyati. Modal so'zlar tasnifi.

Morfemika . So'z tarkibi (2soat)

So'zlarning morfem tarkibi. Asos va qo'shimchalar. Old qo'shimchalar va ularning xususiyatlari. Nutqda asosdosh so'zlardan foydalanish.

Nazorat ishlari (8 soat)

II KURS

ONA TILI (72 soat)

Sintaksis. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi. So‘z birikmalarini tuzish va ulardan foydalanish (4 soat)

So‘zlarning grammatik bog‘lanishi. Teng bog‘lanish. Tobe bog‘lanish. Tobe bog‘lanishning tuzilishi. So‘z birikmasi. Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka kelishik so‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi va ularning sinonimiyasi. Qaratqich kelishigi va egalik qo‘shimchalarining qo‘llanishi. Nutqda qaratqich va tushum kelishiklaridan o‘rinli foydalanish.

Gap bo‘laklari. Sintaktik vositalarni nutqiy uslubda qo‘llash. Gapda so‘z tartibi uslubiyati (6 soat)

Gap bo‘laklari (ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol) va ularning uslubiyati. Sintaktik vositalarni nutqiy uslubda qo‘llash. Gap bo‘laklarining kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi. Gap bo‘laklarining tartibi: odatiy tartib va o‘zgargan tartib.

Uyushiq bo‘laklar uslubiyati (4 soat)

Uyushiq bo‘lakli gaplar uslubiyati. Uyushiq bo‘laklarning shakllari va ularda bog‘lovchi vositalarning qo‘llanishi. Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlash tiruvchi so‘zlarning qo‘llanishi. Uyushiq bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi.

Ajratilgan bo‘lakli gaplar uslubiyati (2 soat)

Ajratilgan bo‘lakli gaplar uslubiyati. Tatibni o‘zgartirish orqali gap bo‘laklarini ajratish. Izohlash orqali gap bo‘laklarini ajratish. Ajratilgan bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi.

Undalma va kiritmalar uslubiyati (2 soat)

Undalmali gaplar uslubiyati. Kiritmalar va ularning uslubiy xususiyatlari. Undalma va kiritmali gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi.

Ifoda maqsadiga ko‘ra gap turlari uslubiyati (4 soat)

Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari (darak, so‘roq, buyruq va istak gaplar), ularning uslubiyati. Ritorik so‘roq gaplar va ularning uslubiyati.

Sodda gaplar uslubiyati (2 soat)

Gap va uning belgilari. His-hayajon gaplar. Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari. Gapning umumiy sintaktik tahlili.

Qo‘shma gaplar uslubiyati (14 soat)

Qo‘shma gap haqida umumiy ma’lumot. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar. Qo‘shma gap turlari. Qismlari ohang yordamida bog‘langan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar. Bog‘langan qo‘shma gaplar. Ergashgan qo‘shma

gaplar va ularning tasnifi, ularni sodda gapga aylantirish. Qo'shma gaplar uslubiyati.

Ko'chirma gaplar va o'zlashtirma gaplar uslubiyati (4 soat)

Ko'chirma gapli qo'shma gap. O'zlashtirma gap. Ularning uslubiyati. Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish.

Matn va uning turlari. Matn tuzish. Matn va iqtibos (4 soat)

Matn turlari. Matn tuzish va iqtibos qo'llash. Matn ustida ishlash.

Punktuatsiya (4soat)

Tinish belgilari va ulardan to'g'ri foydalanish. Nuqta va uning qo'llanishi. Vergul va uning qo'llanishi. So'roq belgisi va uning qo'llanishi. Undov belgisi va uning qo'llanishi. Qavs va uning qo'llanishi. Ko'p nuqta va uning qo'llanishi. Tire va uning qo'llanishi. Qo'shtirnoq va uning qo'llanishi. Ikki nuqta va uning qo'llanishi. Nuqtali vergul va uning qo'llanishi.

Nutq madaniyati.

Madaniy nutq va uni shakllantiradigan asosiy sifatlar (4 soat)

Nutq odobi. Ulug' allomalarimizning nutq odobi haqidagi fikrlari. Nutqiy muloqot va nutq madaniyati. Nutqiy madaniyat – jamiyat madaniyatining ko'zgusi

Madaniy nutq haqida tushuncha. Uni yuzaga keltiradigan asosiy sifatlar: to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik va boshqalar.

Nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi (4 soat)

Nutqning to'g'riligi – uning adabiy til me'yorlariga to'liq muvofiqligi. Adabiy me'yorlarning shakllanishida nutqiy amaliyotning o'rni. Leksik me'yorlar. To'g'ri talaffuz me'yorlari. So'z yasaliish me'yorlari. Grammatik me'yorlar. Uslubiy me'yorlar. Yozma nutqning to'g'riligida imlo va tinish belgilari me'yorlari. Nutqning to'g'riligiga putur yetkazuvchi holatlar.

Nutqning aniqligi va ko'p ma'noli, ma'nodosh, shakldosh va paronim so'zlardan to'g'ri foydalanish. Nutqning aniqligi va badiiy nutq. Nutqning aniqligiga putur yetkazuvchi holatlar.

Fikr tarkibi va mantiqiylik. Nutqning mantiqiyliigiga erishishda sintaktik vositalardan o'rinli va unumli foydalanish. Mantiqiy nutq tuzishning bog'li nutq, ijodiy matn yaratishdagi o'rni. Nutqning mantiqiyliigiga putur yetkazuvchi holatlar.

Nutqning sofligi, boyliigi, jo'yaliligi, ifodaliligi (4 soat)

Nutqning sofligi uning adabiy til me'yorlariga mosliigi bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy odatlarga yot bo'lgan unsurlardan xoliligi asosida belgilanishi. Nutq va jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy me'yorlar. Nutqning sofligiga putur yetkazuvchi holatlar. Varvarizmlar va vulgarizmlarning qo'llanish me'yorlari.

Rasmiy ish qog'ozlari uslubiga xos qoliplashgan so'z, birikma va gaplarning nutq sofligiga salbiy ta'siri.

Nutqning boyligi yoki kambag'alligi. Nutq boyligi undagi tarkibning rang-barangligi bilan belgilanishi. O'zbek tilining lug'at tarkibi – nutq boyligini ta'minlashning asosi. Nutqning boyligini ta'minlashda ma'nodosh so'zlar, sodda va qo'shma gaplarning o'rni. Nutqning boyligiga putur yetkazuvchi holatlar. Leksik va grammatik takrorlarning nutq sifatiga salbiy ta'siri.

Til vositalaridan muloqot sharoiti va maqsadiga mos tarzda foydalanish – nutq jo'yaliligining bosh omili. Jo'yalilik sifatining og'zaki va yozma shakllarda namoyon bo'lishi. Nutqning jo'yaliligi va so'z tanlash malakasi. Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi. Ifodalilik va nutqiy uslublar. Nutqning ifodaliligini ta'minlovchi vositalar. Epitet. Metafora. O'xshatishlar. Metonimiya. Mubolag'a va kichraytirish. Kinoya. Nutqning ifodaliligiga putur yetkazuvchi holatlar.

Nutq madaniyati va nutq texnikasi (2 soat)

Nutq texnikasi –nutqiy madaniyatning muhim belgisi. Ovozning sifati, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish. Urg'u. Talaffuz texnikasi, diksiya va boshqa fonetik ko'nikmalar.

Nazorat ishlari (8 soat)

ONA TILI FANIDAN O'QUV REJASIDA AJRATILGAN SOAT MIQDORI VA MAVZULAR BO'YICHA TAQSIMOTI

I bosqich

№	Fan bo'limlari va mavzular	Umumiy yuklama (soatlarda)						Mustaqil ish
		Hammasi	Auditoriyadagi o'quv yuklamasi					
			Jami	Nazariy	Amaliy	Seminar	Kurs ishi	
I kurs								
O'zbek adabiy tili								
1	Milliy til va adabiy til. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari. O'zbek adabiy tili va uning taraqqiyoti	4	2	2				2
Uslubiyat (6 soat)								
2	O'zbek tili uslubiyati. Nutqiy uslublar va uslubiy bo'yoq	8	6	4	2			2
4	Ish qog'ozlari va ular bilan ishlash	8	4		4			4
Fonetika (4 soat)								
5	Unli va undoshlarning ifodalanishi. Fonetik o'zgarishlar	4	2		2			2

Orfoepiya (2 soat)								
7	To'g'ri talaffuz me'yorlari	2	2	2				
Orfografiya (8 soat)								
8	O'zbek tilining yangi imlo qoidalari	10	8	2	6			2
So'z yasalishi (2 soat)								
9	So'z yasalish usullari	4	2	2				2
Leksikologiya (10 soat)								
10	So'z ma'nolari. Ma'no ko'chish yo'llari	4	2	2				2
11	So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari va ularning uslubiyati	4	2		2			2
12	Tilning boyish manbalari	2	2	2				
13	Yangi so'zlar. Eskirgan so'zlar	2	2		2			
14	Atamalar. Iboralar uslubiyati	2	2		2			
Leksikografiya (2 soat)								
15	O'zbek lug'atshunosligi. Lug'at turlari	2	2	2				
Morfologiya (24 soat)								
16	Mustaqil so'zlar. Morfologik birliklari uslubiyati	23	16	10	6			7
17	Yordamchi so'zlar	8	6	4	2			2
18	Alohida olingan so'zlar	4	2	2				2
Morfemika (2soat)								
19	So'z tarkibi. Asos va qo'shimchalar	4	2	2				2
20	Nazorat ishi	8	8		8			
	Jami	103	72	36	36			31
II kurs								
Sintaksis (46 soat)								
1	Gapda so'zlarning bog'lanishi. So'z birikmalarini tuzish va ulardan foydalanish	8	4	2	2			4
2	Gap bo'laklari. Sintaktik vositalarni nutqiy uslubda qo'llash. Gapda so'z tartibi uslubiyati	8	6	4	2			2
3	Uyushiq bo'laklar uslubiyati	4	4	2	2			
4	Ajratilgan bo'laklar uslubiyati	4	2	2				2
5	Undalmalar va kirish birikmalar uslubiyati	4	2	2				2
6	Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari uslubiyati	6	4	2	2			2
7	Sodda gaplar uslubiyati	4	2	2				2
8	Qo'shma gaplar va ularning uslubiyati	18	14	10	4			4
9	Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar uslubiyati	4	4	2	2			
10	Matn va uning turlari. Matn tuzish. Matn va iqtibos. Matn ustida ishlash	6	4	2	2			2
Punktuatsiya (4soat)								
11	Punktuatsiya. Tinish belgilari	6	4	2	2			2
Nutq madaniyati (14 soat)								
12	Madaniy nutq va uni shakllantiradigan asosiy sifatlar	6	4	2	2			2

13	Nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi	6	4		4			2
14	Nutqning sofligi, boyligi, jo'yaliligi, ifodaliligi	6	4	2	2			2
15	Nutq madaniyati va nutq texnikasi	4	2		2			2
16	Nazorat ishi	8	8		8			
	Jami	102	72	36	36			30
	Hammasi	205	144	72	72			61

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.M.Mahmudov, A.Sobirov va b. Onatili (10-sinf uchun darslik) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti", 2017
2. N.Mahmudov va b. Ona tili (11-sinf uchun darslik) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti", 2018
3. N.Mahmudov, A. Sobirov va b. Ona tili (5-sinf uchun darslik) Toshkent G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2020
4. N.Mahmudov, A.Nurmonov va b. Ona tili (6-sinf uchun darslik) Toshkent, 2017
5. N.Mahmudov, A.Nurmonov va b Ona tili (7-sinf uchun darslik) "Ma'naviyat" 2017
6. M.Qodirov, H.Ne'matov va b. Ona tili (8-sinf uchun darslik) "Cho'lpon" 2017
7. N.M.Mahmudov, A. Nurmonov va b. Ona tili (9-sinf uchun darslik) Toshkent "Tasvir" 2019
8. O'zbek tilining imlo lug'ati .
9. R.Ishmuhammedov va boshq. "Ta'limda innovatsiyon texnologiyalar" T. 2008
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2006-2008. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti
11. N.Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. 2-nashri. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
12. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov , Y.Tojiyev Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
13. A.Shomaqsudov, I.Rasulov va boshqalar O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983
14. A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: "Ilm ziyo", 2010
15. U.Tursunov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" T. 1992
16. B.Mengliyev "Hozirgi o'zbek adabiy tilidan universal qo'llanma" "Yangi asr avlodi", 2010
17. B.To'xliyev va b. "O'zbek tili o'qitish metodikasi", T. 2010
18. [http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

ЛЮБИМА